



MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI HOZIRGI KUNDAGI MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI

G.N.Mamadjonov

MM1-IQ-22 guruhi magistri

Osiyo Xalqaro Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691574>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-February 2024 yil

Ma'qullandi: 15- February 2024 yil

Nashr qilindi: 22- February 2024 yil

KEY WORDS

nazorat, moliyaviy nazorat, mahalliy byudjet, byudjet jarayoni, byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkiloti, davlat moliyaviy nazorat, moliyaviy nazoratning subyektlari, moliyaviy nazorat obyektlari, moliyaviy nazorat ta'moyillari.

ABSTRACT

Maskur tezis mahalliy byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish va muammolarni bartaraf etish yo'llari to'g'risida keng ko'lamda aytib o'tilgan. Asosan daromadlar maqsadli ravishda xarajatlarga yo'naltirilishi moliyaviy nazorat orqali amalga oshirilayotgani yoki aksincha, teskari holatda ekanligi keltirilib o'tilgan

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunida "Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori ko'zda tutilishi ko'rsatilgan.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobiga shakllanadi. Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqlikni yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirish ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy holati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini

mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda va ularning hozirgi holatini tahlil qilishda rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, bu tajribalarni Respublikamizning mahalliy sharoitidan kelib chiqqan holda tadbiq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Mahalliy byudjetlar daromadlarning amaldagi bo'linish tamoyillarini o'rganish va mahalliy byudjetlarni tartibga solish amaliyoti yuzasidan tegishli takliflar kiritish, amaliyotda qo'llanilayotgan soliqlar, mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar turini kamaytirish asosida yangi soliq bazalarini yaratish yo'llarni aniqlash va boshqa masalalar ko'rib chiqildi. Byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar rolini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ularning shu jarayondagi salmog'ini oshirish e'tirof etilgan va unga, bir tomondan, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va ikkinchi tomondan, tegishli mahalliy soliqlarning stavkalarini o'zgartirish orqali erishish ko'zda tutilgan ekan, to'g'risini aytganda, unga osonlikcha o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Bu ancha murakkab bo'lgan yo'nalish hisoblanib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ko'p jihatdan, byudjet va soliq to'lovchilar manfaatlarining mushtarakligiga bog'liq. Ana shunday mushtaraklikka erishilmas ekan, byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar rolini oshirishning birinchi yo'nalishi o'z samarasini ko'zlanganidek bera olmaydi. Bunday sharoitda, albatta, ushbu maqsadga erishishning boshqa yo'nalishini qidirib topishga ehtiyoj tug'iladi.

Bizning fikrimizcha, ana shunday yo'nalishlardan biri mahalliy soliqlarning undirish mexanizmini takomillashtirish orqali ularning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini oshirish hisoblanishi kerak. Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirishda moliyaviy nazorat organlar tizimi faoliyatini ham takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Samarali nazoratni tashkil etishda byudjet munosabatlarida ishtirok etuvchi tashkilotlar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish tizimini keng qo'yish ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada mahalliy byudjet daromadlarini moliyalashtiruvchi moliya organlari bilan tijorat banklari, soliq o'rtasida o'zaro axborot almashish aloqalarini yanada mukammallashtirish byudjet mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

Davlat moliya tizimi va budjetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan iqtisodiyotchilar tomonidan o'rganila boshlangan. Masalan, G'arb olimlari tomonidan. Klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U.Petti, A.Smit D.Rikardo tomonidan davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'rni va vazifalari yoritilgan. Ular davlatni iqtisodiyotga minimal ishtiroki tarafdorlari bo'lib, davlatning asosiy vazifalari mudofaa va ijtimoiy masalalar deb belgilaganlar. Bozor munosabatlari esa, ularning fikricha, talab va taklif qonuniga asosan iqtisodiy rivojlanish muvofiqlashadi. Yalpi talab darajasini pasayishida davlat aralashish masalalari birinchi marta A. Marshallni ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvi, jumladan budjet tomonidan uni barqarorlashtirish masalalari J.M.Keynsni ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritilgan.

Sharq olimlari Ibn Haldun, Al - Farobiy asarlarida davlat xarajatlari va uning mohiyati ko'rsatilgan. Budjet daromadlariga professorlar T.S Malikov va N.X Haydarovlar quydagicha o'z fikrlarini bildirganlar: "Pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni ifoda etadigan, hokimiyat organlaring

turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari deyiladi".

Mahalliy byudjeti mablag'larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismini, ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki budjetning daromadlari va xarajatlari o'zaro bir-birini taqozo etadi, uni to'liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Budjet siyosatining asosiy yo'nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtasida qayta taqsimlash va respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida, davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iboratdir.

Respublikamizda byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mahalliy byudjet mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, budjet intizomini ta'minlash budjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budjet jarayonlarida, jumladan, mahalliy budjet ijrosini qat'iy ta'minlashda budjetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, mahalliy budjet mablag'laridan maqsadli, samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Byudjet jarayonini mavjud qonunchilik asosida, budjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mahalliy byudjet mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, budjet intizomini ta'minlash budjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "BYUDJET TIZIMI TO'G'RISIDA"GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI. 14.12.2000 y. N 159-II.
2. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(1), 61-64.
3. D.A.Raxmonov, L.O'.Mingishov Moliya. O'quv qo'llanma. JIDU. – Toshkent, 2014.
4. Jumaeva, Z. K. Fiscal policy in ensuring the economic security of the state / Z. K. Jumaeva, E. O. Gafurov // Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью Эпицентр, 2022. – Р. 358-361. – EDN ZWUOPE.
5. Жумаева, З. К. (2023). ПУТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. Gospodarka i Innowacje., 42, 530-533.
6. Nematovna, R. N. (2023). THE ROLE OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITIES IN ENSURING ECONOMIC SECURITY. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 170-175.
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/01/budget-2024>